

## SOVET RESPUBLIKASINING O'ZBEKISTONDA OLIB BORGAN ISLOM DINIGA QARSHI HARAKATLARI (1917-1943)

**Amirova Zarina Ixtiyor qizi**

*Qarshi Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

+998-93-331-55-70 [zarinamirova80@gmail.com](mailto:zarinamirova80@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Islom dini uzoq asrlar buyon o'zbek xalqi uchun asosiy din hisoblangan. Shu bilan birga xalq ko'pgina harakatlarda aynan islom dini bayrog'i ostida birlashgan. Buni rus xalqi juda yaxshi tushunganligi sabab, ayni dinga qarshi harakatlar olib bordi. 1917-yil O'zbekistonda sovet Respublikasining hukmronligi o'rnatilgandan so'ng, keying yillar davomida o'zbek xalqiga nisbatan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy taraflama qatag'on uyushtirildi. Ushbu maqolada II Jahon urushiga qadar O'zbekistondagi musulmon muassasa va musulmon aholiga nisbatan qay tarzda va qanday yo'llar bilan dinga qarshi ateistik harakat olib borilgani haqida qisqacha aytib o'tildi.*

**Kalit so'zlar:** *Islom, rus inqilobi, kommunizm taraqqiyotiga to'siq, "qizil" joylar, xurofot, dahriylik, ateistik siyosat, "Hujum", kino, tuhmat, "yumshoqlik" bosqichi*

Islom dini ulamolar va tashkilotlari uchun Sovet Respublikasi davrida o'tkazilgan qatag'on yillari qora sahifa bo'lib qolgan. Siyosatning boshlanishi 30-yillarda deb aytilsada, voqealar aslida, 1924-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Sovet Ittifoqi 1917-yildagi rus inqilobidagi tartibsizliklardan chiqib ketgach, yangi kommunistik hukumat ateizm va materializmga asoslangan jamiyat yaratishga harakat qildi. Din, jumladan, islom kommunizm taraqqiyotiga to'siq sifatida qabul qilindi.

30-yillarga kelib, partiya hamma jabhalarda hukmron bo'lib olgach, deyarli barcha soha va yo'nalishlardan "xalq dushmanlari"ni izlab topish va ularning "qo'poruvchilik faoliyatini" fosh qilish avj oldi. Hukumat tomonidan madaniy oqartuv muassasalari: qizil choyxonalar, klublar, madaniyat saroylari, turli ko'rgazmali ishlar tashkil qilindi va ularda targ'ibot tashviqot ishlariga jiddiy e'tibor qaratildi. Zero, har qaysi xalqni o'tmishidan, madaniyatidan mahrum etilsa, ularning ongiga har qanday mafkurani singdirish, istalgan kuyga solish mumkin bo'ladi. Shunga ko'ra tashkil etilgan bunday "qizil" joylarni rivojlantirish uchun bir qancha siyosiy talablar ishlab chiqildi<sup>76</sup>.

Eng avvalo, madrasa va masjidlar eskilik sarqiti, xurofot o'chog'i deb yopib tashlandi, dindorlar sotsializm dushmanlariga aylantirildi, uyidan arab imlosidagi kitob topilgan

<sup>76</sup> Yoldoshxo'jayeva H., Qayumov I. O'zbekiston ulamolari. -T., 2015.B-24

kishilar qamoqqa olindi. Shundan so'ng xalq orasidagi fidoyi insonlarni yo'qotish choralari ko'rildi: ular og'machilik, buzg'unchilikda ayblanib, nomiga xalq dushmani, millatchi, aksilinqilobchi, burjua malaylari kabi la'nat tamg'asi tirkaldi <sup>77</sup>.

SSSR tarkibida sovet respublikalari, jumladan O'zbekiston SSRning tashkil topishi, bolshevikcha tartiblar mustahkamlanishi, "sotsializm rivojlanib borgan sari sinfiy kurash keskinlashadi" degan stalincha qoida kabilardan kelib chiqib, dindorlarga qarshi ochiq kurash boshlandi. Bu kurash o'n yillardan ortiq davom etib, sovet hokimiyatining daxriylikdan iborat siyosiy yo'lining pardalangan qiyofasini haqqoniy ravishda namoyon qildi. Sovet hukumatining dinga munosabatida shafqatsiz va ashaddiy kurash olib borish yo'lidan chekinishi vaqtinchalik bo'lib, kelgusida dindorlarga va diniy muassasalarga ko'p yillar davomida o'zlarini o'nglab ololmaydigan darajada zarba berish ko'zda tutilgandi. Ikkinchi jahon urushiga qadar bo'lgan davrda sovet hokimiyatining musulmon muassasa va tashkilotlariga, dindorlarga munosabati davr taqozosi bilan goh yumshab, goh shafqatsiz turda olib turganligi, "sotsialistik qurilish" avj oldirilgan yillarda esa o'ta keskinlashganligi yaqqol ko'rinadi. 1926 - 1927 yillarda sovet hokimiyatining diniy siyosatida keskin burilish bosqichi boshlanib, bu jarayon 1941-yilgacha, ya'ni SSSR Ikkinchi jaxon urushiga tortilguniga kadar uzluksiz davom etib turdi. Mamlakat bo'ylab «xudosizlik uchun kurash» harakati boshlandi. SSSR respublikalarida daxriylikni targ'ib qiladigan, har qanday dinni yangilik va islohotlar dushmani, eskilik sarqiti sifatida qoralaydigan matbuot organlariga asos solindi <sup>78</sup>.

...tuhmatlar diniy arboblarni ham chetlab o'tmadi. Chunonchi, kommunistik partiyaning jilovbardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi, deb hisoblardi. Shuning uchun dinni kamsitish, ruhoniylarni yo'qotish va omon qolganlarni bo'ysundirish uchun eng keskin choralarni ko'rди <sup>79</sup>. Din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning o'ta qizg'in jabhasiga aylantirib qo'yildi. 30-yillarda yuzlab din arboblari, ulamolar, mudarrislar, qayerda ilmiy kishilar bo'lsa, bari "bosmachilarga yordam bergani uchun", Angliya yoki Turkiya foydasiga "josuslik qilgani uchun", "Turkiston muxtoriyati a'zosi bo'lgani uchun" kabi yasama ayblovlar bilan javobgarlikka tortildi <sup>80</sup>.

Dinga qarshi keskin kurash bir necha yo'nalishlarda olib borildi. Bular xotin-qizlarni erkaklar bilan tenglashtirish masalasi, maktab va o'quv yurtlarida ateistik tarbiyani kuchaytirish, arab yozuvidan lotin alifbosiga o'tish va boshqalar edi. 1927-yili xotin-qizlarni zodlikka chiqarish "Hujum" kampaniyasi davrida dindorlarni xurofot va eskilik tarafdori

<sup>77</sup> O'zbekiston Musulmonlari idorasi. T.: - Movorounnahr, 2014.B-10

<sup>78</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: - O'zMU nashriyoti, 2000-2001

<sup>79</sup> Shamsutdinov R. O'zbekistonda Sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. -

T.: - Sharq. 2001.B-218

<sup>80</sup> Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. - T.: - Sharq. 2003.B-237-238

sifatida ta'qib qilish yanada avj oldirildi. Kino yo'nalishida ham dahriylik siyosatini aks yetadigan, dinni va dindorlarni qoralab ko'rsatilgan filmlar yaratila boshlandi. Bu yo'nalishda yaratilgan filmlarni quyidagi guruhga bo'lish mumkin: birinchi, urf - odatlar va shariat - qonun qoidalarini qoralaydigan qat'iy ravishda dinga qarshi qaratilgan kinolar, ikkinchi, musulmon ayollarni "ozodlikka" chiqarish bilan bog'liq kinolar<sup>81</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki o'sha davr sovet mafkurasi va ateistik targ'ibotning kuchli yo'lga qo'yilganligining natijasi deb qarash mumkin.

1941-yilda boshlangan urush tufayli tarixiy vaziyatning o'zgarishi, dindorlarga bir qadar huquqiy erkinliklar berilishi, diniy tashkilot va muassasalarni davlat tomonidan to'la nazorat ostiga olish bilan bog'liq maxsus tashkilotlar tuzilishi jarayoni kechdi. Ikkinchi jaxon urushi yillarida sovet hokimiyatining diniy siyosatida «yumshoqlik» bosqichiga o'tildi. Front ortini mustahkamlash, butun kuch-qudrat va imkoniyatlarni fashizm ustidan qozonilajak g'alabaga safarbar qilish zarurati dahriy hukumatdan shunday yo'l tutishni taqozo qildi<sup>82</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sovet Respublikasi o'zbek xalqi ruhini sindirishda diniy tomonlama harakat qilib, islom dinini eskilik sarqiti – xurofotchilik deb hisoblab, xalqning asosiy birlashtiruvchi kuchini yo'q qilishga har tomonlama harakat qilganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, 1917-1943-yillar oralig'ida olib borilgan ateistik siyosat tufayli, diniy tashkilot va muassasalalar, diniy ulamolar va musulmon ahli juda katta iqtisodiy va madaniy talofat ko'rdi. Ulamolarni qatag'on qilish jarayonida diniy qadriyatlarimiz oyoq osti qilindi. Ular tomonidan saqlanib kelingan diniy va dunyoviy ilmlar hamda yurtimiz o'tmishidan xabar beruvchi nodir qo'lyozmalar musodara qilindi yoki yo'qotib yuborildi. Sovet hukumati qancha ko'p, qanday yo'llar bilan o'lkamizda islom dinini yo'q qilishga urunmasin buni uddalay olmadi. O'zbekiston musulmon xalqlarini bu din qon-qoniga singib ketgan ekan, islom dining yo'li to'g'ri ekanini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev F. O'rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi (1925-1935 yillar). T.: - Fan, 2024.
2. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruv tarixi. T.: - Akademiya, 2006.
3. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. - T.: - Sharq, 2003.

<sup>81</sup> Boboyev F. O'rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi (1925-1935 yillar). T.: - Fan, 2024. B-264

<sup>82</sup> Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruv tarixi. T.: - Akademiya, 2006.

4. Shamsutdinov R. O`zbekistonda Sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. - T.: - Sharq ,2001.
5. Yoldoshxo`jayeva H., Qayumov I. O`zbekiston ulamolari. -T., 2015.
6. O`zbekiston Musulmonlari idorasi. T.: - Movorounnahr, 2014.
7. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: - O`zMU nashriyoti,2000-2001.